



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSEMANING TIL BIRLIGI SIFATIDA O'RGANLISHI

O'razov Alisher Doniyorovich

Guliston davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Pardayeva Izzat Xolbo'tayevna,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent,

Guliston davlat universiteti

Ro'ziqulov Shohruh ilhom o'g'li

Guliston davlat universiteti stajyor-o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15239460>

ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 10th April 2025

Published: 18 th April 2025

KEYWORDS

Leksema, so'z, leksemashakl, so'z yasalishi, sistema, leksik sath, leksemalashuv, til birligi

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek tilida so'zga(leksemaga) o'zbek tilshunoshlarining munosabat masalasi va ayrim qarashlari va fikrlari tahlilga tortilgan.

O'zbek tilida leksemaning mohiyatini ochish uchun xizmat qilgan olimlardan biri professor Sh. Rahmatullayev talqini bilan tanishganimizda, leksema bo'yicha o'z qarashlarini bayon qiladi. Masalan, "Til qurilish birliklari" (2002) ilmiy risolasida leksemaning nutqiy ko'rinishini "leks" termini bilan nomlab, ammo leksemaning nutqiy ko'rinishi "so'z" bo'la olmasligini ta'kidlaydi, shuningdek, "Hozirgi adabiy o'zbek tili" asarida (2010) leksemani "leksosema" termini bilan nomlaydi. Professor Sh. Rahmatullayev boboshqa tilshunoslardan farqli o'laroq, "leksemashakl" terminini ham qo'llaydi. Olimning yozishicha, leksemaga morfemalarning birikishidan lisoniy leksemashakl yuzaga kelishini aytib, shunday izohlaydi, ya'ni miyadagi til xotirasi qismida "leksemashakl"ni qanday tuzish haqida axborot bor va shu tilda gapiruvchi har bir kishi amal qiladi, masalan, qo'llarimda o'rniga qo'ldalarim yoki qo'limlarda kabi shaklda tuzish mumkin emas deya tushuntirib, miyadagi til xotirasida ramz sifatida leksema morfema va shulardan foydalanish qoidalari turadi [Sh.Rahmatullayev, 2002:19] (til xotirasida modellar mavjud bo'lib, shu modellar orqali tuziladi va nutqiy reallashishini keltirib o'tadi olim). Leksema va morfema yuzaga kelgan "leksemashakl"ni tuzma til birligi deb nomlaydi. Olim morfemani modelning leksema qismini to'ldirishga xizmat qiluvchi til birligi sifatida ko'radi. Shuning bilan birga professor Sh. Rahmatullayev leksema va morfemani alohida-alohida til birligi deb hisoblaydi, masalan, til birligi uchun muhim jihat – mazmun jihatidir [Sh. Rahmatullayev, 2002:17]. Shu nuqtayi nazardan til birligi sifatida leksema va morfema bir biridan o'zbek tilshunosligida keskin farq qiladi. Professor Sh. Rahmatullayevning talqinicha leksema til birligi sifatida fonemalar tizimiga ma'lum bir mazmunni yuklash bilan yuzaga keladi [Sh. Rahmatullayev, 2002:16]. Olimning leksema bo'yicha ilmiy izlanishlari keyingi tadqiqotlar uchun yo'l ochib berdi.

Leksemaning mohiyatini ochishda yana bir tilshunos olim akademik A.Hojiyevdir. Olim leksema talqiniga tanqidiy-tahliliy yondashib, uni til birligidagi aniq o'rnini belgilashni maqsad qilib oladi. O'zbek tilida kuzatilayotgan ayrim holatlarga e'tiborini qaratadi. Aytaylik,

“leksema” va “so‘z” terminlari yoma-yon ishlatilib kelingani (birining o‘rnida birining qo‘llanilishi), masalan, “so‘zning shakl va ma‘no jihati”, so‘zning atash (nomlash) vazifasi”, “yasama so‘z” kabilarda “leksema” terminini emas, “so‘z” terminini qo‘llash, hozircha, umumiy holat hisoblanishig [A. Hojiyev, 2007:25] keltirib o‘tadi. Akademik A. Hojiyev leksemaga oid yaratilgan tatqiqotlarga ham o‘z munosabatini bildirib, ular bildirilgan talqinlarga e‘tiborini qaratadi. Shulardan biri sifatida professor Sh. Rahmatullayevning “Til qurilishi birliklari” kitobida qo‘llangan “tub leksema” va “yasama (hosila) leksema” terminlariga o‘z mulohazasini bildirib o‘tadi. Akademik A. Hojiyevning ta’kidlashicha, yasama so‘z lisoniylashib barcha uchun tushunarli holatga o‘tgandan keyin, ya’ni leksemaning asosiy xususiyati bo‘lmish tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabilarni o‘zida mujassam etgan “yasama so‘z” leksema bo‘lishini aytadi (“yasama so‘z” lisoniylashmaguncha leksema bo‘la olmasligi haqidagi ta’rifni H. Ne‘matov va R. Rasulovning “O‘zbek tili sistem leksikologiya asoslari” risolasida ham kuzatish mumkin).

Keyingi tatqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, leksema tub so‘zlar yoki “yasovchi va yasalishga asos bo‘luvchi o‘zaklarning birikmasi”ga mos ko‘rinsada, ammo leksemadagi tayyorlik belgisi va dialektik holati uning asosiy xususiyatidir. Umuman olganda, yasama so‘zlar, o‘zlashgan so‘zlar va tilning ichki imkoniyati orqali paydo bo‘lgan so‘zlar hamma uchun tushunarli bo‘lib ommalashgandan keyin lisoniy tus olib leksemalashadi.

O‘zbek tilshunos olimlari leksemaning tilda hosil bo‘lish usullari haqida tatqiqotlar olib borishdi. Jumladan, H. Ne‘matov va R. Rasulovlarning tavsifini quyidagi jadval asosida ko‘rib o‘tsak

Leksema hosil bo‘lish usuli	Ta’rif	Misollar
Soddalashish	Muayyan so‘z yasash qolipining hosilasida yoki so‘zning ma’lum bir shaklida o‘zak bilan qo‘shimchani o‘zaro birikib, vaqtlar o‘tishi bilan shaklan ajralmas butunlikka o‘tishiga va shunga muvofiq yangi ma’no ifodalashiga aytiladi	ba-bog‘la, ting-tingla, to‘to‘l, tashqari, ichkari, yuqori,
Yaxlitlanish (Ideomatizatsiya)	Tarixan yasama bo‘lgan leksema ma’nosining so‘z yasash (yoki forma yasash) qolipi ma’nosidan uzilishiga, uzoqlashishiga ixtisoslashishi	O‘yash (jazman), o‘xshash, qarash, yo‘nalish, jo‘nalish, yig‘ilish, tanish, ko‘rinish
Terminlashish (Terminologizatsiya)	Nutqiy hosilalarga ma’lum bir soha nuqtayi nazaridan ta’rif berilib, ularning ma’nosi ixtisoslashib atamalarga (terminlarga) aylanishi	morfologiya-(biologiya), morfologiya-(tilshunshoslik), assimlatsiya-(biologiya), assimlatsiya-(tilshunoslik) <i>Nutqiy hosilalarning atoqli otlarga o‘tishi</i> Kattaqo‘rg‘on, Yangiyer, Itolmas, Bo‘riboy
Leksemalashish	Tarixan so‘z birikmalari, (hatto gap) qoliplarining hosilasi bo‘lgan so‘z birikmalari (gap qismlari) orasidagi sintaktik aloqaning yo‘qolishi va bu hosilalarning shakl hamda mazmun butunligi tayyor, turg‘un birliklarga	Boshog‘riq, belbog‘, ishboshi, qo‘lqop, ko‘zoynak

aylanishi

Demak, tatqiqotlardan shu ma'lum bo'ladiki, tilda leksema yasash hodisasi yo'q, balki yasama so'zning (nutqiy hosilaning) soddalashishi, yaxlitlanishi, terminlashishi, so'z birikmasi (gaplar ham) qotib qolib leksemalashish jarayoniga o'tishi (professor B.Mengliyev nutqiy yasama so'zlarni ixtisoslashish, soddalashish, tublashish ko'rinishida lisoniylashadi deb, tartiblaydi) oqibatida lisoniylashuv bosqichiga o'tib, leksema hosil bo'lar ekan va shu tariqa tilda leksema hosil bo'lar ekan.

Leksemaning hosil bo'lishi haqida Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, B.Mengliyev kabi tilshunos olimlar ham o'z munosabatini bildirib o'tishgan.

Ko'p sonli til birliklari til xotirasida ulardan nutq jarayonida tez va adashmasdan foydalanish uchun diskret (bo'lingan) va sistem (ma'lum tartibli) holatda "ushlab turiladi". Katta miqdordagi til birliklarining kishi xotirasida diskret holda saqlanishi, odatda, ularning o'zaro oppozitiv (qarama-qarshi) munosabatda bo'lishiga asoslanadi. Ma'lum o'xshashlik va ayrim farqlar bilan qarama-qarshi turgan ikki va undan ortiq til birliklari o'zaro oppozitivdir [H.Ne'matov, 1993:21]. Misol uchun, leksemalar kishining til xotirasida paradigmatic (eslatib turish, o'xshashlik va farqlilik) va sintagmatic (moslashish, bog'lanish) holda mavjud. Shulardan paradigmatic munosabatda, masalan, *o'g'il* leksemasi *opa* va *ona* leksemalari bilan qon-qarindoshligiga ko'ra o'xshash bo'lsa, jinsiga ko'ra farqli, shuningdek, paradigmatic munosabatda bo'lganligi uchun leksemalarni esda saqlash mumkin. Sintagmatic munosabatda esa leksemaning boshqa leksemaga birika olish va birika olmaslik imkoniyati, masalan, *ovqat* leksemasining *yemoq*, *pishirmoq*, *to'kmoq* kabi leksemalar bilan turli vositalar bilan yoki vositalarsiz lisoniy birika olishi (valentlik hosil qilishi) imkoniyatiga aytiladi va yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, leksema tilning asosiy til birligi ekanligi ma'lum bo'ladi.

Leksemalar nutq faoliyatida o'zlariga grammatik qo'shimchalarni qo'shimchlarni, umumlashma ma'noli turlicha affiksial morfemalarni birlashtirib, so'z formasi shaklida nutq birligiga aylanadi, masalan, *Bog'imda gullar o'sdi* gapida leksemalari muayyan affiksial morfemalarni olib, turlicha vazifalarni bajarib kelmoqda [H.Ne'matov, O.Bozorov, 1993:38]. Shunday qilib, leksemalar til birligi sifatida tildagi ahamiyati nihoyatda katta ekanligi ma'lum bo'adi. Bilamizki, bugungi kunda ham zamonaviy va talablarga javob beradigan mukammal tilni yaratish tilshunoslarning asosiy maqsadidir. Shunday ekan, amaliy tilshunoslik nuqtayi nazaridan leksemaning turli tomonlari, o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi, tatqiq qilinadi.

O'zbek tilining kompyuter uslubini yaratish hayotimizda inqilobiy o'zgarishlarning yuz berishiga asos bo'ladi. Zero, kompyuter uslubi aynan kompyuter lingvistikasi bo'yicha mutaxassislar, kompyuter dasturlari va filologlar ittifoqida yaratiladi. Bizga tarixdan yaxshi ma'lumki, turli silsilalarni boshidan kechirgan insoniyat uchinchi ming yillikning boshida axborot asriga qadam qo'ydi. Minglab yillar davomida rivojlangan inson tafakkuri uchun bugungi kunda dastlabki manba, ya'ni axborot olish va axborot uzatish hayotiy zaruriyatga aylanadi. Shuningdek, til va biznes ham chambarchas bog'liq sohalardir. Kompyuter lingvistikasi tilshunoslar uchun ham ma'naviy, ham moddiy boylik manbayidir, albatta.

Adabiyotlar:

1. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOG 'AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION*, 1(4), 38-42.
2. O'razov, A. (2023). TILSHUNOSLIK VA UNING SATHLARI XUSUSIDA.
3. Doniyorovich, O. R. A., & Shavkatovna, A. S. (2024). O 'ZBEK TILIDA LEKSEMA TALQINI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(18), 144-146.

4. Абдуҳакимович, М. Қ., Мамарахимов, С. М., & Ўразов, А. Д. (2024). ЎТМИШДАЁҚ УНУТИЛГАН АРХАИК СЎЗЛАР “ЎЛИК СЎЗЛАР” ДИР. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 74-78.
5. Pardayeva, I., & Mahmudboyeva, F. (2022). ZARGARLIK TERMINLARINING SINTAKTIK USUL BILAN YASALISHI. *Gospodarka i Innovatsye*, 24, 562-564.
6. Pardayeva, I. X. (2021). Semantic Method Of Jewellery Terms Production With. *European Scholar Journal*, 2(7), 10-12.
7. Рузикулов, Ш. (2022). ЖИНСНИНГ МОРФОЛОГИК УСУЛДА ИФОДАЛАНИШИ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 148-151.
8. Akbarovich, A. A., Ixtiyor, E., & O'G, R. Z. S. I. (2024). TIL VA FAOLIYAT VA ULARNING O 'ZARO BOG 'LIQLIGI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 4-7.
9. O'G, R. Z. S. I., Tursunkulovich, M. A., & Qizi, E. F. B. (2024). TA'LIMDA RASMIY ISH QOG 'OZLARINING AHAMIYATI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 22-25.
10. Shohruh ilhom o'g, R. Z. (2024, May). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO 'Z TURKUMLARINING O 'RGANILISHI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS* (Vol. 1, No. 5, pp. 36-46).
11. Akbarovich, A. A. REFLECTION OF NATIONAL VALUES IN ARTICLES. *Pedagogika*, 171.
12. Akhrorov, A. (2019). ISSUE OF STUDYING THE " CULTURE OF SPEECH" AS A SEPARATE SCIENCE. *NEWS OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN*, 1(4).
13. Akbarovich, A. A. (2023). MAQOLLARDA UMUMYASHIRIN MA'NONING NAMOYON BO'LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(4), 163-166.
14. Jurayev, J. (2022). Ахроров Алишер Акбарович. МАКОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. *FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI*, 11(11).
15. Ahrorov, A. (2022). O 'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
16. Axrorov, A. A. (2022). The problem of the role of proverbs in the event of a speech act. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 49-53.
17. Axrorov, A. A. UDK: 811.512. 133 ROST VA YOLG 'ON SO 'ZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI. *ILMIY AXBOROTNOMA*, 57.
18. Ixtiyor, E., Axrorov, A., & Mamaraximov, S. (2024). TERMINOLOGIYADA GIPEROGIPONIMIK HODISALAR. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 12-15.
19. Latipov, M. (2024). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IS'HOQXON IBRAT ILMIIY-IJODIY MEROSINING O 'RGANILISHI HAQIDA. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 9(60).
20. Djurayev, M. E., & Qozoqboyeva, D. H. (2025). BEKOBOD SHAMOLINI GEOGRAFIK BAHOLASH. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(3), 402-405.